

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Ped.72.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

SAIDQULOVA FIRUZA FARMONOVNA

**TALABALARDA IQTISODIY KOMPETENSIYANI
RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2023

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Saidqulova Firuza Farmonovna

Talabalarda iqtisodiy kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari 3

Саидкулова Фируза Фармоновна

Педагогические условия развития экономической компетенции у студентов 23

Saidqulova Firuza Farmonovna

Pedagogical conditions for the development of economic competence in students 43

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 48

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Ped.72.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

SAIDQULOVA FIRUZA FARMONOVNA

**TALABALARDA IQTISODIY KOMPETENSIYANI
RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.22.PhD/Ped3425 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Olimov Shirinboy Sharofovich**
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Shodiyev Rizamat Davronovich**
pedagogika fanlari doktori, professor

Ziyavitdinova Nafisa Muxammadovna
iqtisod fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot: **Navoiy davlat pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Ped.72.04 raqamli ilmiy kengashning 2023 yil “_____” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil “_____” _____ kuni tarqatildi.
(2023 yil “_____” _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi.)

S.Q. Qahhorov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, p.f.d., professor

A.R. Jo‘raev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, p.f.f.d (PhD), professor

H.O. Jo‘raev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar
raisi, p.f.d (DSc)., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda pedagog kadrlar hamda talabalarning kompetentligini rivojlantirish orqali oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati va raqobatbardoshligini ta'minlashga bo'lgan ehtiyoj yanada kuchaymoqda. "Yevropa oliy ta'lim makoni" (EHEA) konsepsiyalari hamda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 70 yillik yubiley sessiyasida qabul qilingan «Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs)» mazmunida "Kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirishda kompetensiyalarga asoslangan ta'lim" (competence-based learning) modelini joriy etish belgilab berilgan. Bunda pedagog kadrlarning ijodiy salohiyati, iqtisodiy kompetentligi va ijodiy kreativligini rivojlantirish orqali o'qitishning zamonaviy metodikalarini yaratish va takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda oliy ta'lim innovatsion rivojlanishining global vazifalaridan biri talaba-yoshlarda barcha kompetensiyalar qatori iqtisodiy kompetentlikni shakllantirishdir. Xalqaro pedagogik tajribalarga ko'ra oliy ta'lim tizimini sifatli tashkil etishda innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga tadbiq etish, iqtisodiyot sohasida kadrlar tayyorlash jarayonida o'qitish tamoyillarini ilmiy asoslab berish borasida ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu jarayonda talabalar iqtisodiy kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish, oliy ta'lim tizimi mazmuniga mos didaktik imkoniyatlarini kengaytirish hamda o'qitish metodikalarini takomillashtirish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining zamonaviy holati, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish strategiyasi, uning diversifikatsiyasi, globallashtirish va hududlashtirish jarayonlari oliy ta'lim sohasini yangilash vazifalarini qo'yimoqda. Oliy ta'lim sifatini oshirish, kadrlar tayyorlash tizimining fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari bilan integratsiyalashuvini ta'minlash jarayonida talabalarning iqtisodiy kompetensiyasini uzluksiz rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim - jamiyatni isloh qilish va uni yangi texnologiya hamda bilimlarga yo'naltirilgan jamiyatga aylantirishning asosiy omili sifatida qaraladi. U nafaqat jamiyatning rivojlanish istiqboli, balki har bir insonning alohida faoliyatini oldindan aniqlaydi va belgilaydi. Bugungi kunda mehnat bozorida ustuvor o'rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo'lish har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo'lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "Yangi O'zbekistonning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2018-yil 22-yanvardagi PF-5308-son "2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" farmonlari, 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son "Pedagogik ta'lim

sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarorlari hamda mazkur faoliyatga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishi bo'yicha bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi.

Oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, bo'lajak mutaxassislarda iqtisodiy kompetensiyani rivojlantirish metodologiyasi, uning pedagogik-psixologik jihatlari, pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini rivojlantirishga oid ilmiy tadqiqotlar respublikamiz olimlaridan X.F.Rashidov, Sh.E.Qurbonov, N.A.Muslimov, B.S.Nuridinov, N.N.Azixodjaeva, U.Sh.Begimqulov, R.H.Djuraev, F.M.Zakirova, D.Sayfurov, A.Musurmanova, M.B. Urazova, Z.K.Ismailova, Sh.S.Sharipov, G.A.Yeldasheva, M.H.Mirsolieva va boshqalarning ilmiy-tadqiqot ishlari hamda ilmiy izlanishlarida uchratish mumkin.

Iqtisodiy kompetensiyani rivojlantirish masalalari, uning pedagogik-psixologik jihatlari, tamoyillari va texnologiyalari va yondashuvning shaxs faoliyati va kasbiy kamolotidagi o'rni, shuningdek, kasbiy o'zini o'zi takomillashtirishning konseptual masalalari Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan: T.Bazarov, A.Derkach, I.Zimnyaya, E.Zeer, N.Kuzmina, Ye.Kudryavseva, A.Markova, V.Slastenin, G.Kalkova, N.Ilina, G.Jirkova, Ye.Yejak va boshqalarning tadqiqot ishlarida ko'rilgan hamda ta'lim muhitiga ta'siri bo'yicha salmoqli izlanishlar olib borilgan.

Rivojlangan mamlakatlar olimlaridan T. Xoffmann, Dj. Chetam, Dj. Chivers va boshqalar ta'lim tizimini rivojlanishi bo'yicha maxsus kompetensiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga qo'llash muammolariga doir ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Mamlakatimizning yetakchi iqtisodchi olimlari A.Sh.Bekmurodov, V.Zaripov, N.N.Maxmudov, M.R.Raxmatov, B.Sh.Rizaev, B.B.Salimov, M.A.Tillyaxodjaev, S.R.Qosimov, R.X.Xalikova, K.Xonkeldieva, F.Azimova, M.B.Boltaboev, R.Isaev, G.R.Madraximova, A.M.Razikov, B.Tursunov, M.Xudoykulov, S.Yusupov, U.Yusupov, M.Abdusalyamov, T.M.Axmedov, S.V.Chepel, A.Soliev, Sh.I.Mustafakulov, Sh.X.Nazarov, A.B.Nizamov, D.A.Ortiqova, B.Ruzmetov, N.A.Xashimova, A.M.Sodiqov, S.S.Zokirov, A.M.Qodirov, F.T.Egamberdievlarning ilmiy ishlarida iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlarida boshqarishning nazariy va uslubiy asoslarini, iqtisodiy

kompetensiyani rivojlantirish masalalarini, mintaqaviy iqtisodiyotning nazariy-metodologik jihatlarini tadqiq etishgan.

Yuqorida izohlangan ilmiy-tadqiqot ishlarining mazmuni oliy ta'lim muassasalarida iqtisodiy bilimlarni rivojlantirish bo'yicha ilmiy xulosalar berilgan bo'lsada, adabiyotlar va ilmiy-tadqiqot ishlarini tizimli tahlili shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim muassasalari iqtisodiyot ta'lim yo'nalishi talabalarida iqtisodiy kompetensiyani rivojlantirish masalalari atroflicha o'rganilmagan hamda ta'lim jarayonida foydalanishga doir pedagogik tavsiyalar ishlab chiqilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot rejasining "Oliy ta'limda talabalarning iqtisodiy kompetensiyasini rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalaridan foydalanish" (2017-2020 y.y.) mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi oliy ta'lim muassasalari talabalarida iqtisodiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

talabalarning iqtisodiy kompetensiyasini rivojlantirishda individuallashtirish va differentsiyalashtirish komponentlari feyedback hamda peyer reviyew ta'lim xizmatlari sifatini oshirishga yo'naltirilgan iqtisodiy bilimlarga egalik, standart va nostandart vaziyatlarda iqtisodiy kompetentlikni namoyon qilish kabi pedagogik-psixologik xususiyatlarini hisobga olish asosida takomillashtirish;

oliy ta'lim muassasalarida marketing, tadbirkorlik va boshqaruv kompetensiyalari ishlab chiqarish texnologiyalar transferini produktivlik darajasini oshirish, ta'lim oluvchilarni iqtisodiy faoliyatga jalb etishning didaktik imkoniyatlarini kengaytirish kabi pedagogik shart-sharoitlarini amalga oshirish orqali rivojlantirish;

talabalarning kasbiy faoliyatga moslashuvchanlik darajalari hamda iqtisodiy kompetensiyalarini obyektiv baholovchi indikatorlarning diagnostik, prognostik miqdor va sifat aspektlari mazmunan faol o'zlashtirish motivatsiyasini rivojlantirish orqali optimallashtirilgan hamda iqtisodiy kompetensiyani rivojlantirishga oid didaktik ta'minot tizimini rivojlantirish zaruratini asoslash;

oliy ta'lim muassasalarida talabalarning iqtisodiy kompetensiyasini rivojlantirishning strategik mezonlari ijodiy muhit barqarorligi, individual-kognitiv, kommunikativ-faoliyatli, iqtisodiy-topshiriqli, muammoli, kreativ, refleksiv yondashuvning ta'sirchan mexanizmlarini aniqlashtirish.

Tadqiqot obyekti sifatida oliy ta'lim muassasalari talabalarining iqtisodiy kompetentligini rivojlantirish jarayoni olingan bo'lib, Buxoro, Samarqand va Qarshi davlat universitetlaridan 562 nafar talabalar ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmeti oliy ta'lim muassasalarida iqtisodiyot nazariyasi fanini o'qitish jarayonida talabalarning iqtisodiy kompetensiyasini takomillashtirishning tashkiliy-pedagogik shartlari, shakl, usul va vositalari.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada pedagogik tadqiqotlarda qo‘llaniladigan adabiyotlar tahlili, kuzatuv, umumlashtirish, so‘rovnoma, test, suhbat, pedagogik eksperiment, matematik-statistik ishlov berish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarning iqtisodiy kompetensiyasini rivojlantirishda individuallashtirish va differenziatsiyalashtirish komponentlari feedback hamda peer review ta‘lim xizmatlari sifatini oshirishga yo‘naltirilgan iqtisodiy bilimlarga egalik, standart va nostandart vaziyatlarda iqtisodiy kompetentlikni namoyon qilish kabi pedagogik-psixologik xususiyatlarini hisobga olish asosida takomillashtirilgan;

oliy ta‘lim muassasalarida marketing, tadbirkorlik va boshqaruv kompetensiyalari ishlab chiqarish texnologiyalar transferini produktivlik darajasini oshirish, ta‘lim oluvchilarni iqtisodiy faoliyatga jalb etishning didaktik imkoniyatlarini kengaytirish kabi pedagogik shart-sharoitlarini amalga oshirish orqali rivojlantirilgan;

talabalarning kasbiy faoliyatga moslashuvchanlik darajalari hamda iqtisodiy kompetensiyalarini obyektiv baholovchi indikatorlarning diagnostik, prognostik miqdor va sifat aspektlari mazmunan faol o‘zlashtirish motivatsiyasini rivojlantirish orqali optimallashtirilgan hamda iqtisodiy kompetensiyani rivojlantirishga oid didaktik ta‘minot tizimini rivojlantirish zarurati asoslangan;

oliy ta‘lim muassasalarida talabalarning iqtisodiy kompetensiyasini rivojlantirishning strategik mezonlari ijodiy muhit barqarorligi, individual-kognitiv, kommunikativ-faoliyatli, iqtisodiy-topshiriqli, muammoli, kreativ, refleksiv yondashuvning ta‘sirchan mexanizmlari aniqlashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

oliy ta‘lim muassasalarida talabalarning iqtisodiy kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

iqtisodiyot yo‘nalishi talabalari uchun pedagogik-psixologik bilimlar, yondashuv hamda tamoyillarni muvofiqlashtirish asosida “Kreativ boshqaruv” kursi dasturi ishlab chiqilgan;

talabalarning iqtisodiy kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari kengaytirilgan, “Iqtisodiyot nazariyasi” va “Innovatsion iqtisodiyot” fanlari bo‘yicha elektron o‘quv-metodik qo‘llanma ishlab chiqilgan;

oliy ta‘lim muassasalarida “Iqtisodiyot nazariyasi” fani bo‘yicha talabalarning iqtisodiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan loyihalash, muammoli o‘qitish va case-study texnologiyalaridan foydalanishning imkoniyatlari aniqlangan va ular o‘quv jarayoniga tadbiriq etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘llanilgan yondashuv, metodlar va nazariy ma‘lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistika metodlari tahlili yordamida asoslangani, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati oliy ta'lim tizimida talabalarning iqtisodiy kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy asoslari, ta'lim jarayoniga tizimli yondashuv, tashkiliy pedagogik shart-sharoitlarni takomillashtirish, talabalarning iqtisodiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan tavsiyalar, "Iqtisodiyot nazariyasi" fanini o'qitish jarayonini samarali tashkil etish bo'yicha ilmiy-metodik ko'rsatmalar, talabalarning iqtisodiy kompetentligini innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida rivojlantirish, ularning psixologik xususiyatlarini aniqlashga oid tavsiyalari asosida o'quv-uslubiy qo'llanma ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, talabalarning iqtisodiy kompetentligini rivojlantirishni takomillashtirilgan modeli (loyihalash, muammoli o'qitish va case-study texnologiyasi) hamda ta'limning innovatsion shakllari (refleksiv kuzatuv, faol amaliyot, off-line konsultatsiya, ijodiy topshiriqlar) "Iqtisodiyot nazariyasi" fanini o'qitish jarayonida iqtisodiy kompetensiyani rivojlantirish bo'yicha o'quv-uslubiy ko'rsatmalar talabalar faolligini oshirish texnologiyasi bo'yicha uslubiy ta'minotni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning iqtisodiy kompetensiyasini rivojlantirish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalari va ishlab chiqilgan takliflar asosida:

oliy ta'lim muassasalarida talabalarning iqtisodiy kompetensiyasini rivojlantirishning strategik mezonlari ijodiy muhit barqarorligi, individual-kognitiv, kommunikativ-faoliyatli, iqtisodiy-topshiriqli, muammoli, kreativ, refleksiv yondashuvning ta'sirchan mexanizmlarini aniqlashga oid takliflar "Iqtisodiyot nazariyasi" fani mazmuniga singdirilgan hamda Buxoro davlat universitetining davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida bajarilishi 2018-2021-yillarga mo'ljallangan OT-AQX-2018-22 raqamli "Chorvachilikning ozuqa bazasini rivojlantirish orqali chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini oshirish" nomli amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2023-yil 15-fevraldagi 04-04/01-300-son ma'lumotnomasi). Natijada, talabalarning iqtisodiy kompetensiyasini rivojlantirishning tashkiliy bosqichlari aniqlangan;

talabalarning iqtisodiy kompetensiyasini rivojlantirishda individuallashtirish va differentsiyalashtirish komponentlari feyedback hamda peyer reviyew ta'lim xizmatlari sifatini oshirishga yo'naltirilgan iqtisodiy bilimlarga egalik, standart va nostandart vaziyatlarda iqtisodiy kompetentlikni namoyon qilish kabi pedagogik-psixologik xususiyatlarini hisobga olish asosida takomillashtirilishiga oid taklif va xulosalar asosida "Chakana savdo prinsiplari" fanidan testlar to'plami" ishlab chiqilgan yelektron o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazining 2023-yil 14-martdagi 02/01-01-35-son ma'lumotnomasi). Natijada, o'quv-uslubiy ta'lim

ta'minoti talabalarning iqtisodiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga asos bo'lgan;

talabalarning kasbiy faoliyatga moslashuvchanlik darajalari hamda iqtisodiy kompetensiyalarini obyektiv baholovchi indikatorlarning diagnostik, prognostik miqdor va sifat aspektlari mazmunan faol o'zlashtirish motivatsiyasini rivojlantirish orqali optimallashtirilgan hamda iqtisodiy kompetensiyani rivojlantirishga oid didaktik ta'minot tizimini rivojlantirishga oid xulosa va tavsiyalardan Buxoro viloyat teleradiokompaniyasining "Assalom, Buxoro", "Sakkizinchi mo'jiza", "Iqtisodiy bilimlarimizni oshiramiz" kabi ko'rsatuvlarining ilmiy-ommabopligini ta'minlashda foydalanilgan (Buxoro viloyat teleradiokompaniyasining 2023-yil 1-martdagi 02-02-60-son ma'lumotnomasi). Natijada, talabalarning iqtisodiy kompetensiyasini rivojlantirish samaradorligini oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.

Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro va 3 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 22 ilmiy-uslubiy ishlar chop etilgan, shulardan, 2 ta monografiya, 1 ta elektron o'quv qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, (5 ta respublika va 4 ta xorijiy jurnallarida) nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmeti tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi hamda amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Talabalarda iqtisodiy kompetensiyani rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari"** deb nomlangan birinchi bobida talabalarda iqtisodiy kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik zaruriyati izohlanib, iqtisodiy kompetensiyani rivojlantirishning huquqiy-me'yoriy asoslari hamda iqtisodiy kompetensiyani rivojlantirishning mavjud holati va uni takomillashtirish yo'llari kabi masalalar bayon qilingan.

Hozirgi davrda ta'lim samaradorligini oshirish, bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentlik darajasini rivojlantirish, pedagog kadrlarni innovatsion

faoliyatga yo'naltirish, oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayoniga innovatsion ta'lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish, ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish va maqsadli yo'naltirish oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalashdagi dolzarb vazifalar sifatida belgilandi.

Ilmiy pedagogik, psixologik manbalarda berilishicha, kompetensiya, kompetentlilik o'ta murakkab, ko'p qismli, ko'pgina fanlar uchun mushtarak bo'lgan tushunchalardir. Shu boisdan uning talqinlari ham hajman, ham tarkibiga ko'ra, ham ma'no, mantiq mundariyasi jihatidan turli-tuman. Atamaning mohiyati shuningdek, "samaradorlik", "moslashuvchanlik", "yutuqlilik", "muvaffaqiyatlilik", "tushunuvchanlik", "natijalilik", "uquvlilik", "xossa", "xususiyat", "sifat", "miqdor" kabi tushunchalar asosida ham tavsiflanmoqda.

Inglizcha «competence» tushunchasi lug'aviy jihatdan bevosita «qobiliyat» ma'nosini ifodalaydi. Mazmunan esa «faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish»ni yoritishga xizmat qiladi.

«Kompetentlik» tushunchasi ta'lim sohasiga psixologlarning ilmiy izlanishlari natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik «noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan holatlarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik»ni anglatadi.

Kompetensiya - egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik va kasbiy faoliyatda qo'llay olish qobiliyati.

Kasbiy kompetentlik esa mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularning amalda yuqori darajada qo'llay olinishi hisoblanadi. Kasbiy kompetentlik bo'lajak mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi.

Kompetentlik xususiyatlarini aniqlash borasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahlillari asosida to'plangan xulosalar mazmunidan kelib chiqib, ilmiy yondashuv doirasida kompetentlik tushunchasini quyidagicha ta'rif berildi: «Kompetentlik – shaxsiy sifatlar to'plami bo'lib, muayyan sohadagi vazifalarni egallangan muhim, doimiy rivojlanib boruvchi kompetensiyalar asosida bajara olish qobiliyati» Shuningdek, kompetentlilik tushunchasining mohiyatini amaliyotga yo'naltirilgan bilimlar, ko'nikmalar, qobiliyat, xulq atvor kabi integratsion shaxsiy sifatlar to'plami tashkil etar ekan, iqtisodiy kompetentlik tushunchasini quyidagicha izohlashga zamin bo'ldi: «Iqtisodiy kompetentlik - jamiyat rivojlanishiga mos iqtisodiy bilim, ko'nikma, malakalarni doimiy egallab borish qobiliyati bo'lib, turli iqtisodiy vaziyatlarda ularning amaliyotga maqsadli tatbiqi bilan bog'liq shaxsiy rivojlanib boruvchi sifatlar yig'indisidir».

Iqtisodiy kompetentlik tushunchasi bilan yondosh mazmunda, muammo sifatida belgilangan oliy ta'lim tizimi talabalarining iqtisodiy kompetentligi negizida qanday sifatlar aks etishi, uning mohiyati, oliy ta'lim tizimi talabali, o'zlarida iqtisodiy kompetentlikning qanday sifatlarini yoritish zarurligi borasida yuzaga keladigan savollar «talabalarining iqtisodiy kompetentligi» tushunchasini mohiyatan tadqiq qilish zaruriyatini belgilaydi. Oliy ta'lim tizimida talabalarining zarur kasbiy fazilatlarini bilan bir qatorda, turli murakkablik darajasidagi iqtisodiy vaziyatlarni muvaffaqiyatli hal etishga imkon beradigan kasbiy mahoratni biz ularning iqtisodiy kompetentligi sifatida tahlil qilib, uning mohiyatini aniqlashni zarur deb belgiladik.

Iqtisodiy kompetensiyaning mohiyati, mazmuni va vazifalarini aniqlab olish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy kompetensiya kishilarning iqtisodiy bilimlari, e'tiqodlari va amaliy faoliyatlari, ularning o'zaro yaxlit tarzda ro'yobga chiqishini nazarda tutadi.

Iqtisodiy kompetensiyada iqtisodiy ong, iqtisodiy faoliyat, iqtisodiy munosabatlar asosiy o'rin egallaydi. Iqtisodiy ong tushunchasi keng ma'noga ega bo'lib, avvalambor, kishilarning ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonidagi o'z o'rinlarini anglab yetishlarini bildiradi. Iqtisodiy faoliyat hayot kechirishni ta'minlash usuli, uning vositalari majmuidir. Uning tarkibiga eng avvalo, moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish kiradi. Chunki bu narsa faoliyat uchun ustuvor ahamiyatga ega bo'lib, nafaqat mehnatni, balki mehnat mahsulini o'zlashtirishni ham o'z ichiga oladi. Inson iqtisodiy faoliyatning sub'ekti hisoblanadi. Iqtisodiy munosabatlarning mohiyati ishlab chiqarish darajasinigina emas, balki mulkchilik, taqsimot, ayriboshlash va iste'mol muammolari, ular bilan bog'liq ravishda tarkib topadigan munosabatlarni aks ettiradi.

Talabalarining jamiyat iqtisodiy hayotining turli sohalarida maqsadga muvofiq ijodiy faoliyati, sifat jihatidan yangi natijalarga erishuvi iqtisodiy kompetentlikning mazmunini tashkil etadi. Shaxsning iqtisodiy madaniyati uning o'z-o'zini kamol toptirishini ifoda etib, nafaqat madaniyat qadriyatlarini yaratish, boyitish va iste'mol qilish darajasini, balki bu jarayonda o'z erkinligini yanada yuqori, yangicha bosqichga ko'tarishni ta'minlaydi. Iqtisodiy kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o'qitishning asosiy mohiyati fanlardan tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayonida talabalar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy hayoti davomida, shuningdek, kelgusida kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirish sanaladi.

Talabalar kelgusida hayoti davomida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o'z o'rnini egallashi, mazkur jarayonda duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi o'z sohasi, kasbi bo'yicha raqobatbardosh bo'lishi uchun zarur bo'lgan tayanch kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida oliy ta'lim muassasalarida iqtisodiy kommunikatsiyani rivojlantirish zamonning asosiy talabi bo'ldi. Mamlakatimiz rahbari tomonidan bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida islohotlarning tub burilishi bo'lgan "O'zbek modeli" ishlab chiqildi. Albatta, bu model uzoq va mehnat talab qiladigan jarayon sifatida maydonga chiqdi. Bir qator islohotlar sababli, umumiy iqtisodiy rivojlanish jarayonida quyidagi natijalarga erishildi:

Birinchi, islohotlarning ibtidosida belgilangan maqsad, vazifalar, ustuvor yo'nalishlar, asosan, amalga oshirildi. Mamlakatda iqtisodiy, ijtimoiy barqarorlik qaror topdi. Qisqa vaqt ichida chuqur iqtisodiyotning turli sohalarida tub o'zgarishlar amalga oshirildi.

Ikkinchi, islohot yo'llarida bozor o'zgarishlarining huquqiy-normativ asoslari yaratildi. Qabul qilingan qonunlar islohotlarni amalga oshirishning ishonchli mexanizmlari va ularning orqaga qaytmasligi kafolatiga aylandi. Amalda qilinayotgan yangidan qabul qilinayotgan qonunlarni yanada takomillashtirishning mexanizmlari shakllandi.

Uchinchi, iqtisodiy islohotlarni maqsadga muvofiq tarzda amalga oshirish va chamalab qurilgan makroiqtisodiy siyosatni ishlab chiqish natijasida makroiqtisodiy va moliyaviy vaziyatni barqarorlashtirishga erishildi.

Iqtisodiy kompetensiya – talabalar tomonidan o'zlashtirilgan nazariy-iqtisodiy bilimlarga tayangan holda, ularda muayyan sifat (tejamkorlik, tadbirkorlik, oqillik, uddaburonlik, kommunikativlik, vaziyatni to'g'ri baholay olish, mehnatsevarlik, ishchanlik hamda boshqalar) hamda iqtisodiy faoliyat ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Dissertatsiyaning **"Talabalarda iqtisodiy kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari"** nomli ikkinchi bobida talabalarda iqtisodiy kompetensiyani rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlari, iqtisodiy kompetensiyani rivojlantirishning zamonaviy shakl, metod va vositalari ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, talabalarda iqtisodiy kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlari yoritib berilgan.

Oliy ta'limda iqtisodiy kompetentli-yo'naltirilgan o'qitish tizimi talabalarda bilim, ko'nikma, malakalarni va iqtisodiy qobiliyatlarini shakllantirishi lozim bo'ladi. Bu zamonaviy mehnat bozorining talabi bo'lib, har bir o'quv fani vositasida shaxsning intellektual resurslarini kengaytirishni nazarda tutadi.

Zamonaviy sharoitda ta'lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko'ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilishi talab qilinmoqda. Yuksak malakali mutaxassislarining iste'molchilar talablariga qarab tayyorlanishi, talabalarni tanlagan ixtisosliklari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarining shakllantirilishi mustaqil ravishda bilim olishga va amaliy faoliyatga o'rgatilishi ta'minlanishi kerak.

Hozirgi kunda oliy ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalar, innovatsiyalar

va interfaol usullardan foydalanish, yangi ishlab chiqarilayotgan texnik vositalarni tatbiq qilish, ko'proq talabalarni mustaqil ishlashga undash, ilg'or tajribalardan saboq berishning turli yo'llaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Yana bir jihati muhimki, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan iqtisodiy kompetensiyasi, bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, ularning tanlagan yo'nalishlari bo'yicha bir yoki bir necha zamonaviy kasb egallashlari uchun iqtisodiyot fanlarini o'qitishni samarali tashkil qilishni ta'minlash lozim.

Oliy ta'lim muassasalarida iqtisodiyot yo'nalishida o'tiladigan fanlar uzluksiz ravishda ijodiy tafakkurni talab qiladigan, muammoli xususiyatdagi topshiriq va masalalar tizimidan iboratdir. Har bir ma'ruza, seminar, mustaqil ta'lim, laboratoriya ishlari ham muammoli vaziyat, holatning tarkibiy qismlaridan tuzilgan bo'ladi. Ularni hal qilish esa talabdan ijodiy izlanishni talab qiladi. Chunki muammoli holatgacha davr, muammoli vaziyat, muammoli vaziyatdan keyingi aqliy jarayonlar ham talabdan ijodiy qidiruv, tadqiqot faoliyatini amalga oshirishni taqozo etadi. Topshiriqlarni mustaqil bajarish talabalardan tafakkur operatsiyalari (tahlil, taqqoslash, solishtirish, mavhumlashtirish, umumlashtirish, guruhlash) va shakllaridan (tushuncha, hukm, xulosa chiqarishdan) foydalanishni talab qiladi.

Bizningcha, iqtisodiyot nazariyasi fanidan muammoli o'qitish jarayonida talabning mustaqillik roli reproduktiv o'quv usullariga solishtirib qaraganda ancha samarali bo'ladi. Muammoli ta'limning maqsadi ham ular bilan ishlash jarayonida ta'lim-tarbiya masalalari, yuzaga kelgan muammo va savollariga javob qidirish, ularni hal etish yo'llari bilan yangi bilimlarni o'zlashtirishni, o'quvchi-talabalar o'quv faoliyatida muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish va hal etish bo'yicha professor-o'qituvchilar ularda qiziqish uyg'ota olishidan iborat.

Jumladan:

1. Iqtisodiyotda yuzaga kelgan muammolarni tahlil qilib fikr yuritish talabalarining mustaqil aqliy faoliyatini rivojlantirishning muhim talablaridandir. Bunday fikr yuritish talabani shu narsani anglay olmaganligini tushunib yetib, bu gapning ma'nosiga jiddiy ravishda e'tibor berishga, tafakkurini shakllantirishga qaratadi.

2. Oliy ta'lim muassasalarida o'qitish jarayonida iqtisodiy tafakkurni samarali, maqsadga muvofiq bo'lishi uchun uni o'quv jarayoni, o'quv-tarbiya ishlari asosining bir qismiga aylantirish zarur. Muammoli ta'lim yordamida esa bo'lajak mutaxassislarda o'quv muammolari va mutaxassislik masalalarini yechishga tadqiqiy yondashish, iqtisodiy tafakkurini rivojlantirish, mustaqil tarzda o'rganish mahoratini shakllantirishni tarbiyalaydi.

3. Iqtisodiy ta'lim talabalar bilim tizimlari va aqliy hamda amaliy faoliyatlarida samarali o'zlashtirishga, tafakkurini shakllantirishga yordam beradi, o'zlashtirgan yangi bilimlaridan kelajakdagi vaziyatlarda unumli foydalana olishni, ta'lim muammolarini yecha bilish, mustaqil izlanishga o'rgatish, ijodiy tajribaga ega bo'lish va uni rivojlantirish, ta'lim jarayonining vazifalarini tahlil qilish, muammoli ta'limni aniqlash imkoniyatlarini ochib beradi.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda talabalarning iqtisodiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ularning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi, ta'lim-tarbiya jarayonining sifati, samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llashga doir katta tajriba to'plangan bo'lib, bu tajriba asosini interfaol metodlar tashkil etmoqda. Bu metodlar o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim oluvchilarda o'quv-bilish faolligini oshirish, ularni kichik guruh va jamoada ishlash, o'rganilayotgan mavzu, muammolar bo'yicha shaxsiy qarashlarini dadil, erkin ifodalash, o'z fikrlarini himoya qilish, dalillar bilan asoslash, tengdoshlarini tinglay olish, g'oyalarni yanada boyitish, bildirilgan mavjud mulohazalar orasidan eng maqbul yechimni tanlab olishga rag'batlantirish imkoniyatiga egaligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda, oliy ta'limda iqtisodiy fanlarni o'qitish jarayonida interfaol metodlar hisoblangan "Keys-stadi" va "Kouching" texnologiyalari ta'limda aniq vaziyatdagi muammolarni yechimini topishda hamda qo'yilgan maqsadga erishishda eng samarali texnologiyalar sifatida yetakchi o'rinni egallaydi. Ta'lim jarayonida "Keys-stadi" texnologiyasining muhim afzalliklari, bir tomondan talabalarda iqtisodiy kompetentlikni shakllantirsa, ikkinchi tomondan bo'lajak mutaxassisda turli vaziyatlarda eng maqbul yechim topish ko'nikmasini shakllantiradi.

"Keys-stadi" texnologiyasi (inglizcha "case" – to'plam, chemodan "study" – o'rganish) – vaziyatli tahlil yoki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish bo'lib, ushbu texnologiya talabalarda aniq, real yoki sun'iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. U talabalarni bevosita har qanday mazmunga ega vaziyatni o'rganish va tahlil qilishga o'rgatadi. Iqtisodiy keyslar bilan ishlashda talabalarda tahliliy, amaliy, ijodiy va ijtimoiy ko'nikmalarining shakllangan bo'lishi muhim sanaladi. Shuningdek, o'quv keyslarini yechishda o'qituvchi keys talablariga, keys yechish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalarga amal qilishi hamda keysda albatta, o'qituvchining yechimi bo'lishi kerak bo'ladi.


Ta'limda "Kouching" texnologiyasining afzalliklari, ta'lim oluvchining o'z imkoniyatlaridan foydalangan holda ko'plab muammolarni mustaqil ravishda hal qilishga, tashabbus ko'rsatishga, tanlashga, mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga va to'g'ri qaror qabul qilishga qodir bo'lgan shaxsiy xususiyatlarni shakllantiradi.

"Kouching" texnologiyasi (inglizcha "coaching" – murabbiylik, ustozlik qilish) – "kouch ((coach) murabbiy)" deb ataladigan shaxs yordamida ta'lim oluvchiga biror bir hayotiy yoki kasbiy maqsadga erishishga yordam beradigan o'qitish usuli, shuningdek, zaruriy usul va uslublarni qo'llagan holda yuqori natijalarga erishish imkonini beradigan jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayonda mutaxassis, ya'ni "Kouch (murabbiy-o'qituvchi)" sifatida ishtirok etadigan pedagog va talaba, hamda iqtidorli talaba bilan talaba o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda hamkorlik bilan ishlash, o'z oldiga qo'yilgan aniq maqsadlarga erishishga ko'maklashadi.

Talabalarda iqtisodiy kompetensiyani rivojlantirishning muhim indikatori kreativlik hisoblanadi. «Kreativlik qobiliyati» tushunchasi talqiniga turlicha yondashuvlar mavjud. Talabalarning kreativligi bu uning o‘z faoliyatiga innovatsion yondashuvlari bilan shakllanadi.

Kreativlik tashabbuskorlik, samarali muloqot, yuksak siyosiy va ijtimoiy mavqe, oldindan ko‘ra olish intuitsiyasi rivojlanganligi va tashkilot faoliyatining qayerga yo‘nalishini tezda payqab olishi bilan xarakterlanadi. Kreativlikning mohiyati – intellekt insonning aqliy salohiyati bo‘lsa, kreativlik ana shu aqliy salohiyatni maqsadga yo‘naltirilgan tarzda erkin ishlata olish qobiliyati hisoblanadi.

Kreativlik zamonaviy ta‘lim menejerlaridan o‘z faoliyatiga ijodiy-innovatsion yondashuvlarni talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan kreativ tafakkur zamonaviy dunyoda ta‘lim talabalarning jarayonini boshqarishning eng muhim vazifalarini amalga oshiradi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Talabalarning kreativ tafakkur mezonlari

Aqlning peshqadamligi belgilangan muddatda ko‘pchilik o‘ylab ko‘rishga ulgurmaydigan muammolar bo‘yicha bir emas, balki bir necha yechimlarni ko‘rsata olish hamda ularning barchasining o‘ziga xos salbiy va ijobiy tomonlarini asoslab bera olish qobiliyatidir.

Tafakkurning egiluvchanligi jamiyatda qabul qilingan va an‘anaviy mavjud bo‘lgan, aslida to‘g‘ri deb o‘ylangan shablon yo‘nalishlar va tamoyillarning zamonaviy taraqqiyot uchun javob bera olmay qolganligini anglash, yangi yo‘nalish va choralarni sezish, ularni tafakkur qila olish va shakllantira

bilish, o'z faoliyatini yangidan qura olish va masala yechimining yangi yo'nalishlariga o'zini safarbar eta olishdir.

Bugungi kundalik hayotda "feedback" ("fidbek") hamda "peer review" iboralari tez-tez uchrab turadi. Ta'limda "feedback" teskari aloqa degan ma'noni anglatib, pedagog tomonidan o'quv jarayoni va uning ishtirokchilarining holati to'g'risida ma'lumot olish tushuniladi. U to'g'ridan-to'g'ri bog'lanishni, ya'ni darsda taqdim etilgan materialni ratsionalizatsiya qilish uchun ishlatiladi. Shuningdek, "feedback" maqsadga erishish darajasini va ta'lim muammolarini hal qilishni aniqlashga imkon beradi. Teskari aloqaning qo'llab-quvvatlovchi, tuzatuvchi hamda rivojlantiruvchi turlari mavjud.

